ZAMONAVIY O‘ZBEK HUQUQSHUNOSLIGI LEKSIKASINING BOYISH TENDENSIYALARI VA XALQARO TERMINOLOGIYA

Jahongir Xo‘janiyozov Xudaybergan o‘g‘li –
Ma’mun universiteti o‘zbek va sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi
+998995006097 xojaniyozovjahongir@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2888-0011

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuridik terminlarning boyish manbalari, usullari, chet tilidan kirib kelgan yuridik so‘zlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, misollar orqali atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yuridik termin, o‘z va o‘zlashgan qatlam, umumturkiy so‘zlar, advokat, prokuror.

Аннотация: В данной статье говорится о богатых источниках юридических терминов, методов и юридических слов, импортированных из иностранных языков. Это также подробно анализируется на примерах.

Ключевые слова: Юридический термин, собственный и усвоенный слой, общетюркские слова, юрист, прокурор.

Abstract: This article talks about sources of legal terminology, methods, and legal words imported from foreign languages. It is also analyzed in detail through examples.

Key words: Legal term, own and assimilated layer, general Turkish words, lawyer, prosecutor.

Yuridik terminlar bugungi kunda yuristlar, tarixchilar, faylasuflar va tilshunoslar tomonidan o‘rganilayotgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida yuridik terminlar o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam orqali boyib boradi. **O‘z qatlamga** umumturkiy so‘zlar va o‘zbekcha so‘zlar kiradi. Yuridik tilshunoslikda o‘z

qatlamga oid birliklarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) tub so‘zlar; 2) yasama so‘zlar; Barcha tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tili lug‘at fondining asosini ham tub so‘zlar tashkil etadi. Ular asosida yuzlab yangi leksemalar hosil qilinadiki, bu tub so‘zlarning tildagi o‘rni nihoyatda muhimligidan darak beradi. Shuningdek, yuridik leksikaning o‘z qatlamiga oid birliklar ichida yasama so‘zlar ham faol qo‘llanadi. E.Begmatov ta’kidlaganidek, “O‘zbekcha so‘zlar tub turkiy leksika negizida o‘tmishda ham ko‘plab hosil qilingan. Bu so‘zlarning ko‘pchiligi shu kunda ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlangan va ular keng qo‘llanilmoqda”[1]. O‘zbek tili yuridik leksikasida *ajrim, aldamoq, oqlamoq, oqlov, surishtirmoq, so‘roq, tergov* kabi tub va yasama so‘zlar faol qo‘llaniladi. O‘zbek tilining o‘z qatlami: **Birinchidan umumturkiy tub so‘zlardan; (kazzob, qotil)**

Kazzob-[a.-yolg’onchi, soxta, aldoqchi] Yolg‘on so‘zlar so‘zlovchi, yolg‘onchi, aldoqchi (O‘TIL, 2-t., 293-b.). -*Men uni do‘st deb yursam, ilonning yog‘ini yalagan kazzob ekan – dedi Ostonaqul*. S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema

Qotil-[a.-o‘ldiruvchi, qatl etuvchi, halokatli] Odam o‘ldiruvchi yoki o‘ldirgan kishi. *Yomon shifokorning qotildan farqi yo‘q.* (O‘TIL, 5-t., 346-b.).
O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor.

Ikkinchidan umumturkiy so‘zlardan yasalgan o‘zbekcha so‘zlardan; (tergovchi, qiynoq, qoralovchi)

Tergovchi *huq.* Biror ish yuzasidan dastlabki tergov o‘tkazuvchi lavozimli kishi. (O‘TIL, 4-t., 71-b.). *Prokuratura tergovchisi. Xalq sudi tergovchisi – Rayondan kelgan tergovchi o‘n kun ovora bo‘lib, jinoyatchilarning izini topolmadi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

Qiynoq 1 Jismoniy yoki ruhiy azob, aziyat, ozor. *Atrofda g‘uv-g‘uv pashsha; oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suquladi, quloqni uzadi: bir zum tinchlik yo‘q.*

[1]Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.- Toshkent: Fan, 1985, 131-b.

Yo‘chi soch oldirib bo‘lguncha qiynoq ichida toqatsizlandi. Oybek, Tanlangan asarlar. (O‘TIL, 5-t., 286-b.).

Qoralovchi 2 *huq.* Sud oldida sudlanuvchining aybdor ekanligini quvvatlovchi; ayblovchi. *Davlat qoralovchisi. Jamoat qoralovchisi. Qoralovchi gapirib, oqlovchi gapirib... Olyaning o‘zi oxirgi so‘zidan voz kechib, sud hay‘ati.. qamoq muddatini e’lon qildi.* M.M.Do‘st, Lolazor. (O‘TIL, 5-t., 339-b.). **Uchinchidan boshqa tildan o‘zlashgan so‘zga o‘zbek tili yasovchi qo‘shimchasining qo‘shilishidan; (adolatsizlik, guvohlik, firibgarlik)** **Firibgarlik** Aldamchilik, hiylagarlik. *U (Navoiy) o‘z ruboiylarida munofiqlik, yolg‘on so‘zlash, dangasalik va firibgarlik kabi hislatlarni qattiq qoraladi. “Vatan adabiyoti”. Firibgarlik yo‘li bilan ilmiy unvon olgan kishining umri ruhiy azobda o‘tadi.* R.Usmonov, Odobnoma. (O‘TIL, 4-t., 348-b.). **Adolatsizlik** Adolatsiz hatti-harakat, adolatga zid holat. *Elmurod o‘ylanib, tashqariga chiqdi. Haqsizlik, adolatsizlik uning ichini o’rtay boshladi.* P.Tursun, O‘qituvchi. (O‘TIL, 1-t., 41-b.). **Guvohlik 2** *huq.* Guvoh tomonidan berilgan ma‘lumot, guvohning aytganlari. *Guvohlik bermoq. Ziyodaxon bilan anzirat xoladan, qolaversa, Sharofat mojarosidan xabardor bo’lgan boshqa odamlardan sudda guvohlik berishlarini so‘radi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. (O‘TIL, 1-t., 515-b.). **To‘rtinchidan umumturkiy so‘zga boshqa tildan o‘zlashgan so‘z yasovchi qo‘shimchalarning birikishidan (notinch, qamoqxona, mansabparast) hosil bo‘lgan so‘zlardan iborat.**

Notinch 1 Shovqini yoki harakati ko‘p, sershovqin, serqatnov. *Notinch ko‘cha.* **2** Tinchi, osoyishi buzilgan; bezovta, besaranjom. *Notinch vaqt. Bemahal notinch qilmoq. Uning (hakimboyvachchaning) ranggi o‘chgan, ko‘zlari allaqanday notinch.* Oybek, Tanlangan asarlar. **3** G‘alva, tashvishi ko‘p; serg‘alva, sertashvish, tashvishli. *Rahmatilla birmuncha vaqt shahar maorifi bo‘limida, bu yer notinch bo‘lganidan keyin, muzeyda ishladi.* A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. (O‘TIL, 3-t., 62-b.).

Qamoqxona Qamoq joyi; qamoq, turma. *Qamoqxonada yotmoq. Obxonalar... Buxoroning eng mustahkam qamoqxonasi edi.* S.Ayniy, Doxunda. (O‘TIL, 5-t., 234-b.).

Mansabparast Mansabga intiladigan, mansabni yaxshi ko‘radigan. *Mansabparast odam. Yolg‘iz o‘z manfaati yo‘lida, bir-birini yeb, ichgan mansabparast... yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizga aqlim yetmay qoldi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. (O‘TIL, 2-t., 539-b.). **O‘zlashgan qatlam.** O‘zbek tili leksikasining boyishida tashqi manbalar muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi o‘zbek yuridik leksikasining lug‘at tarkibiga tarixiy sabablarga ko‘ra boshqa tillardan ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. O‘zbek tili yuridik leksikasiga boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar o‘zlashgan qatlamni tashkil qiladi. Yuridik leksikada asosan arab, fors, rus va u orqali yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar mazkur terminlarning asosini tashkil qiladi va iste‘molda keng qo‘llaniladi. **Arab tilidan o‘zlashgan *afv, hakam;***

Afv Gunohidan o‘tish, kechirish. Kechirim, uzr. *Sizdan bu ulug‘ gunohim uchun afv so‘rab, haydalgan o‘g‘lingiz- Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar, (O‘TIL, 1-t., 117-b.).

Hakam [*a.*-sudya, qozi; trener] **1** Taraflar o‘rtasidagi kelishmovchilikni, janjalni sudsiz bartaraf etuvchi, kelishtiruvchi, holis vositachi; *Uncha katta bo‘lmagan bu qishloqning o‘z kayvonisiyu buzg‘unchisi, o‘g‘risiyu hakami, baxtlisiyu baxtsizlari bor.* “Yoshlik” (O‘TIL, 5-t., 489-b.).

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan *pora, gumon;*

Pora II [*f*- mayda pul, chaqa; xayr-sadaqa: rishva, pora] Biror ishni noqonuniy tarzda bitirib bergani uchun mansabdor shaxsga beriladigan yoki berilgan narsa yoki pul. *Pora olmoq. Pora bermoq. Pora yemoq. A‘zamjon aka hozir pora bilan ish bitkazish mumkinmasligi, pora bergan ham, pora olgan ham qiya bo‘lib ketishini aytib qoldi.* S.Ahmad, Saylanma. (O‘TIL, 3-t., 296-b.). **Rus tili va u**

orqali yevropa tillaridan o‘zlashgan *advokat, prokuror va boshqalar*.

Advokat – [*lot*. Advocatus. < advocare – yordamga chaqirish] **1** Sudda javobgarga huquqiy yordam (maslahat) beruvchi, javobgar (aybdor)ni himoya qiluvchi yurist; oqlovchi, himoyachi. *Advokat, taraf sifatida, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqqa ega bo‘ladi.* Gazetadan. (O‘TIL, 1-t., 39-b.).

Prokuror [*fr*. procureur < *lot*. procurare – g‘amxo‘rlik qilmoq] **1** Qonunlarga to‘la amal qilinishi va ularning to‘g‘ri qo‘llanishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi mansabdor shaxs. *Respublika prokuror – Qonunlar ijrosi ustidan nazorat prokuror vazifasi emasmi?* Gazetadan. **2** Sud jarayonida davlat qoralovchisi. *Mahalliy tergovchining “tergov protokoli” bilan harbiy sud prokurorining ayblash qog‘ozi topshirilgan vaqtida, u boshqa katta bir ishni olish to‘g‘risida o‘ziga o‘xshagan bir kishi bilan gaplashib o‘tirgan edi.* Cho‘lpon, Kecha va kunduz. (O‘TIL, 3-t., 313-b.).

Yuridik leksikasida umumiste’moldagi so‘zlar, yuridik terminlar, o‘zlashgan so‘zlar bilan bir qatorda iboralar (*frazeologizm*) ham faol qo‘llanadi. Frazeologizm yaxlit bir ma’no ifodalaydigan so‘z birikmasi yoki predikativ qo‘shilma qolipidagi til birligidir. Yuridik nutqda, xususan, advokatlar nutqida *til biriktirimoq, ko‘zdan kechirmoq, tili bir, ishni bosti-bosti qilmoq* kabi frazeologizmlar ko‘p uchraydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuridik leksikaning boyish manbalari bir necha usullarni o‘z ichiga oladi. Ular so‘z yasalishi va boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi orqali hosil bo‘ladi. Shuningdek, tilimizdagi frazeologik birliklar ham yuridik leksikada keng qo‘llanilishini ko’rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.- Toshkent.: Fan, 1985

2. Mo‘ydinov Q. O‘zbek tili sud nutqi leksikasi. Monografiya.-Chirchiq. 2022

3. Yuridik Ensiklopediya.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli) – Toshkent.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006